



“TASDIQLAYMAN”  
Xarid komissiyasi raisi  
Maktabgacha ta’lim vaziri o‘rinbosari

*[Signature]*  
N. Muslitdinov  
« 21 » yanvar 2022 y.

## ENG YAXSHI TAKLIFNI TANLASH XARID XUJJATLARI

“Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari  
faoliyatini boshqarish bo‘yicha axborot tizimini  
ishlab chiqish”

Buyurtmachi: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim  
vazirligi

Toshkent shahri – 2022 y.

(Tex)

*[Signature]*

(Husnoba)  
*[Signature]*

(Oquvchi)  
A.Odolat

(Muzokarotchilar)  
*[Signature]*

(Maxsus yordamchi)  
*[Signature]*

(Hizmatkor)

(Bepara 1 A.)  
*[Signature]*

## MUNDARIJA

- I. Ishtirokchini tanlash bo'yicha ko'rsatmalar.**
- II. Tanlashning texnik qismi.**
- III. Tanlash ishtirokchisiga qo'yiladigan talablar qismi**
- IV. Tanlashning narx qismi.**

- qabul qilish yoki davlat xaridlari jarayonida buyurtachining qandaydir xarid protsedurasini qo'llashga ta'sir etish.
- 5 Tanlash tili va Eng yaxshi taklifni tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchilarning malakali tanlovi**
- 5.1 Ishtirokchi va buyurtmachi o'rtasidagi taklif va barcha tegishli hujjatlar va yozishmalar o'zbek yoki rus tillarida taqdim etiladi.
- 5.2 Tanlash boshlanishidan oldin, xarid komissiyasi ishtirokchilarning malakali tanlovini o'tkazadi. Faqat malakaviy tanlovidan o'tgan ishtirokchilar tanlashda ishtirok etishlari mumkin.
- 5.3 Malakaviy tanlov uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati ushbu yo'riqnomaning 1 -ilovasida (№ 1,2,3,4,5 son shakl) keltirilgan. Barcha malaka hujjatlari elektron shaklda yuborilishi kerak.
- 5.4 Malakaviy tanlov uchun ishtirokchilar quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lishi kerak:  
shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;  
shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;  
soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;  
o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;  
Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi.
- 5.5 Malakalarni baholash mezonlari 2 -ilovada keltirilgan
- 6 Tanlash ishtirokchisining taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi**
- 6.1 Ishtirokchi hujjatlar to'plamini elektron tarzda taqdim etishi kerak.
- 6.2 Tanlash ishtirokchisi:  
taqdim etilgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va ishonchliligi uchun javobgardir;  
faqat bitta taklifni taqdim etish huquqiga ega;  
kiritilgan taklifni takliflarni oxirgi qabul qilish sanasigacha qaytarib olish yoki o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.
- 6.3 Tanlash ishtirokchilari takliflarining amal qilish muddati takliflar taqdim etilgan kundan boshlab kamida 30 kalendar kun bo'lishi kerak.
- 7 Takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish**
- 7.1 Zarur hollarda buyurtmachi takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirishi, shuningdek xarid komissiyasi qarori bilan o'z takliflarining amal qilishini ma'lum muddatga uzaytirish taklifi bilan tanlash ishtirokchilariga murojaat qilishi mumkin.
- 7.2 Tanlash ishtirokchilarining takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish to'g'risidagi e'lon maxsus axborot portaliga joylashtiriladi va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi mumkin.
- 8. Xarid hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish**
- 8.1 Zarur hollarda buyurtmachi xarid hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega. Xarid hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qaror takliflarni taqdim etish muddatidan bir kun oldin kechiktirmay qabul qilinishi mumkin. Xarid hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish jarayonida mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki uning xususiyatlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga, ushbu tanlash bo'yicha takliflarni taqdim etish muddati kamida uch ish kuniga qadar uzaytiriladi.

## I. TANLASH ISHTIROKCHILARI UCHUN QO‘LLANMA (keyingi o‘rinda qo‘llanma)

- |                                   |     |  |
|-----------------------------------|-----|--|
| <b>1 Umumiy qoidalar</b>          | 1.1 | Mazkur hujjat «Davlat xaridlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 22.04.2021 y. 684-sonli O‘RQ (keyingi o‘rinda - Qonun) va «Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»iga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 26.05.2018, 3016-son bilan ro‘yxatga olingan) muvofiq ishlab chiqilgan. |
|                                   | 1.2 | Tanlash mavzusi: «Nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish bo‘yicha axborot tizimini ishlab chiqish» bo‘yicha mahsulot hamda unga munosib xizmatlarni ko‘rsatib beruvchi eng yaxshi taklifni tanlash (keyingi o‘rinlarda tanlash deb yuritiladi)   |
|                                   | 1.3 | Tanlashning boshlang‘ich narxi QQS bilan birga.  |
|                                   | 1.4 | Texnik talablar xarid xujjatining texnik qismida keltirilgan.  |
| <b>2 Tanlash tashkilotchilari</b> | 2.1 | Tanlash buyurtmachisi – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi «Buyurtmachi»ning manzili: 100070, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 17, 100070.   |
|                                   | 2.2 | Tanlashni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha kotib ma‘lumotlar:<br>Tel.: 99 301-81-18, 71 207-04-08 (885)   |
|                                   | 2.3 | Shartnoma egasi: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi   |
|                                   | 2.4 | Tanlash «buyurtmachi» tomondan kamida besh a‘zodan tuzilgan xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.   |
| <b>3 Tanlash ishtirokchilari</b>  | 3.1 | Tanlashda xorijiy yuridik shaxslar (O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari) ham, mahalliy yuridik shaxslar (O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari) ham ishtirok etishlari mumkin, 4.2-bandda ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno.   |
| <b>4 Tanlash tartibi</b>          | 4.1 | Tanlashda ishtirok etish uchun tanlash ishtirokchisi:<br>a) tanlash shartlari bilan tanishish uchun maxsus axborot portaliga joylashtirilgan xarid hujjatlarining elektron versiyasini olish (yuklab olish);<br>b) malakaviy hujjatlarni va taklifni ushbu ko‘rsatma talablariga muvofiq elektron yuborish;  |
|                                   | 4.2 | Ishtirokchilarning malakaviy tanlashida ishtirok etish uchun quyidagi tashkilotlar qo‘yilmaydi:<br><br>ularga nisbatan bankrotlik jarayoni qo‘llanishi kiritilganlar;<br>soliq va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddatidan o‘tgan qarzdorligi mavjudlar;<br>Insofsiz ijrochilarning yagona ro‘yxatida turuvchilar.  |
|                                   | 4.3 | Buyurtmachi xarid jarayonlarida ishtirok etishda ishtirokchini tanlashdan chetlatadi, agar ishtirokchi bevosita yoki bilvosita har qanday rasmiy shaxsga yoki buyurtmachi xodimiga har qanday shakldagi mukofot, ish taklifi yoki har qanday qimmatbaho narsa yoki xizmatni taklif etsa va u qandaydir xarakterni amalga oshirish, qarorni                       |

**9 Takliflarni baholash mezonlari va jarayoni**

- 9.1 Taklifning texnik va narx qismiga doir savollarga hamda boshqa masalalar bo'yicha ishtirokchilar tushuntirish beradilar.
- 9.2 Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar taqdim etish muddati tugaganidan boshlab o'n kundan oshmasligi kerak.
- 9.3 Xarid komissiyasi tanlash g'olibini tanlash uchun xarid hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida rad etilmagan takliflarni baholaydi (2-ilova).
- 9.4 Agar tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlar ishonchsiz deb topilsa, xarid komissiyasi bunday ishtirokchini tanlashda ishtirok etishdan chetlatishga haqli.
- 9.5 Takliflarni baholash jarayonida xarid komissiyasi tanlash ishtirokchilaridan o'z takliflari haqida tushuntirishlar talab qilishi mumkin. Ushbu tartib tanlash tashkilotchisi orqali belgilangan tartibda rasman, yozma ravishda amalga oshiriladi. Tushuntirish jarayonida taklif mohiyatida, shuningdek, narxda hech qanday o'zgarishlarga yo'l qo'yilmaydi.
- 9.6 Xarid xujjatlaridagi mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan tanlash ishtirokchisi g'olib deb topiladi.
- 9.7 Arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lsa, xarid komissiyasi bu haqda tanlash ishtirokchisini xabardor qilib, taklifni rad etish yoki kelgusida ko'rib chiqish uchun boshqa shartlarni aniqlash huquqiga ega.
- 9.8 Takliflarni taqqoslash natijalari asosida xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi va tanlash natijalarini protokolda aks ettiradi. Protokol rasmiylashtirilgan kuni muhokama qilish uchun davlat buyurtmachisi tomonidan ikki ish kuniga davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtiriladi. Agar ikki ish kunida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash natijalari bo'yicha hech qanday e'tirozlar bildirilmasa, davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi..
- 9.9 Muhokama uchun belgilangan muddat tugagandan so'ng bildirilgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi. Tanlash jarayoni natijalari asosida uning ishtirokchilaridan e'tirozlar bildirilganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.
- 9.10 Xarid komissiyasiga davlat buyurtmachisi tomonidan taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida xarid komissiyasi yig'ilishining tegishli bayonnomalari tuziladi va u imzolangan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida elektron davlat xaridlari tizimiga joylashtiriladi.

**10 Tomonlarning javobgarligi va maxfiylikiga rioya etish**

- 10.1 Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi:  
tanlash ishtirokchilarining takliflarini xisobga oluvchi va ularning xavfsizligi va maxfiylikini ta'minlovchi shaxslar;

Komissiya raisi va a'zolari, shuningdek, tanlash ishtirokchilarining takliflarini o'rganish uchun tuzilgan baholash guruhi - axborotni oshkor qilish, ishtirokchilar va komissiyaning boshqa a'zolari bilan til birlashtirish, shuningdek, boshqa noqonuniy harakatlarga yo'l qo'yish uchun.

- 10.2 Shartnoma bo'yicha (miqdoriy, sifat va texnik parametrlar bo'yicha) majburiyatlarni bajarmagan tanlash g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va/yoki tuzilgan shartnoma bo'yicha javobgar hisoblanadi.
- 11 **Boshqa shartlar**
- 11.1 Tanlash ishtirokchisi xarid hujjatlari va qo'llaniladigan xaridlar tartibi bo'yicha tushuntirishlar olish uchun buyurtmachiga yoki o'zi tomonidan jalb qilingan ixtisoslashtirilgan tashkilotga so'rov yuborish huquqiga ega. Belgilangan so'rov olingan kundan boshlab ikki ish kuni mobaynida buyurtmachi yoki u bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkilot buyurtmachi tomonidan takliflar taqdim etish muddatidan oldin ikki kundan kechiktirmay qabul qilingan bo'lsa, xarid hujjatlari va qo'llaniladigan xaridlar tartibi bo'yicha tushuntirishlar yuborishi shart. Ta'minot hujjatlari qoidalarini tushuntirishlar uning mohiyatini o'zgartirish kerak emas.
- 11.2 Tanlash xaridlar komissiyasi tomonidan sodir bo'lmagan deb e'lon qilinishi mumkin:  
agar tanlashda bitta ishtirokchi qatnashgan yoki hech kim qatnashmagan bo'lsa;  
agar takliflarni ko'rib chiqish natijalari asosida xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa.
- 11.3 Buyurtmachi tanlashda g'olib bo'lgan taklifning akseptidan avval tanlashni har qanday vaqtda bekor qilishi huquqiga ega. Tanlash bekor qilingan taqdirda buyurtmachi bunday qaror qabul qilgandan keyin uch ish kuni ichida maxsus axborot portalida e'lon joylashtiradi.
- 11.4 Ishtirokchilar tomonidan taklif etilayotgan namunalarni zarur hollarda xarid komissiyasi o'rganish uchun takliflar namunalarni so'rashga (soha mutaxassislari tomonidan o'rganish va baholash uchun) xaqli.
- 12 **Shartnoma tuzish**
- 12.1 Tanlash g'olibi bilan shartnoma, xarid hujjatlarida ko'rsatilgan shartlar va taqdim etilgan taklif bo'yicha yoki muzokaralar natijasi asosida tuziladi.
- 12.2 Xarid komissiyasi qarori bilan tanlash g'olibi deb e'lon qilingan tanlash ishtirokchisi buyurtmachidan tegishli yozma xabarnoma oladi.
- 12.3 Agar tanlash g'olibi tanlash shartlari bo'yicha shartnoma tuzishdan bosh tortsa, shartnoma tuzish huquqi zaxiradagi bajaruvchisiga o'tadi. Shu bilan birga, zaxiradagi bajaruvchi tanlash g'olibi tomonidan taklif etilgan narxda shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

## TEXNIK VAZIFASI

<i>№</i>	<i>Maxsulot turi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>Soni</i>	<i>Texnik va dasturiy qo'llab quvvatlash muddati</i>
1.	<i>Axborot tizimi ishlab chiqish</i>	<i>Dona</i>	<i>1</i>	<i>12 oy</i>

## Takliflarni va ishtirokchilarni baholash tartibi va mezonlari

1. Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchilarning malakaviy baholanishi va tartibi.

Malakaviy baholash tanlash boshlanishidan oldin xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Agar ishtirokchi tomonidan kerakli ma'lumotlar taqdim etilmagan bo'lsa, xarid komissiyasi uni tanlashda ishtirok etishiga yo'l qo'ymaslikka haqlidir.

№	Mezonlar	Baholash	Izoh
1	Tanlovda ishtirok etish uchun ariza. (forma № 1)	muvofiq/muvofiq emas	muvofiq kelmasa chetlashtiriladi
2	Tanlov ishtirokchisining muxri bilan tasdiqlangan, davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.	muvofiq/muvofiq emas	muvofiq kelmasa chetlashtiriladi
3	Ishtirokchining tashkil etilish, tugatilish yoki bankrotlik holatida emasligi, "Buyurtmachi" bilan sudlashish yoki hakamlilik muhokamasi holatida emasligi, shuningdek ilgari tuzilgan shartnomalar buyicha noto'g'ri bajarilgan majburiyatlarning yo'qligi to'g'risida kafolat xati. (forma № 2)	muvofiq/muvofiq emas	muvofiq kelmasa chetlashtiriladi
4	Tanlov ishtirokchilari tomonidan korrupsiyaga yo'l qo'yilmasligi haqidagi xarid komissiyasi nomiga berilgan bayonot. (forma № 3)	muvofiq/muvofiq emas	muvofiq kelmasa chetlashtiriladi
5	Tanlov ishtirokchisi haqidagi umumiy ma'lumot. (forma № 4)	muvofiq/muvofiq emas	muvofiq kelmasa chetlashtiriladi
6	Soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.	muvofiq/muvofiq emas	muvofiq kelmasa chetlashtiriladi
7	Ishtirokchining moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlar (oxirgi uch yildagi 1 -shakl va 2 -shaklga muvofiq moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarning nusxalari (balanslar).	muvofiq/muvofiq emas	muvofiq kelmasa chetlashtiriladi
8	Shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan texnik, moliyaviy, moddiy, mehnat va boshqa resurslarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot.	muvofiq/muvofiq emas	muvofiq kelmasa chetlashtiriladi
9	Noinsof bajaruvchilar yagona reestrda mavjudligi	muvofiq/muvofiq emas	muvofiq kelmasa chetlashtiriladi



2. *Majburiyatlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlaydigan xodimlarning mavjudligi va malakasini baholash metodologiyasi (40 ball)*

<i>Nö</i>	<i>Mezonlar</i>	<i>Baholangan omillar</i>	<i>Baho</i>
1.	<i>Kompaniya uchun shunga o'xshash loyihalarni amalga oshirish tajribasi</i>	<i>Kompaniya 5 yoki undan ortiq muvaffaqiyatli yakunlangan loyihalar tajribasiga ega</i>	<i>10 ballgacha.</i>
		<i>Kompaniya kamida 3-4 ta muvaffaqiyatli yakunlangan loyihalar tajribasiga ega</i>	<i>7 ballgacha.</i>
		<i>Kompaniya kamida 1-2 muvaffaqiyatli yakunlangan loyihalar tajribasiga ega</i>	<i>3 ballgacha.</i>
2.	<i>Davlat boshqaruv organlari uchun loyihalarni amalga oshirish tajribasi</i>	<i>Vazirliklar</i>	<i>10 ballgacha.</i>
		<i>Qo'mitalar</i>	<i>7 ballgacha.</i>
		<i>Inspeksiya va agentliklar</i>	<i>3 ballgacha.</i>
3.	<i>Ajratilgan xodimlar soni bo'yicha</i>	<i>8 yoki undan ortiq xodim ajratilgan</i>	<i>10 ballgacha.</i>
		<i>4 yoki undan ortiq xodim ajratilgan</i>	<i>7 ballgacha.</i>
		<i>2 yoki undan ortiq xodim ajratilgan</i>	<i>3 ballgacha.</i>
4.	<i>Xodimlarning malakasi</i>	<i>Asosiy jamoa xodimlarining o'rtacha umumiy ish tajribasi 5 yildan ortiq.</i>	<i>10 ballgacha.</i>
		<i>Asosiy jamoa xodimlarining o'rtacha umumiy ish tajribasi 3 yildan ortiq.</i>	<i>7 ballgacha.</i>
		<i>Asosiy jamoa xodimlarining o'rtacha umumiy ish tajribasi 3 yilgacha.</i>	<i>3 ballgacha.</i>

3. *Takliflarning narx baholanishi metodologiyasi (40 ball)*

<i>Nö</i>	<i>Mezonlar</i>	<i>Baholangan omillar</i>	<i>Baho</i>
1.	<i>Taklif etilgan narx</i>	<i>Ishlab chiqiladigan axborot tizimi narxlari jadvaliga kiritilgan barcha turdagi xizmatlar (ishlar) bo'yicha xarajatlarning eng past narxi</i>	<i>40 ballgacha.</i>
		<i>Ishlab chiqiladigan axborot tizimi narxlari jadvaliga kiritilgan barcha turdagi xizmatlar (ishlar) bo'yicha xarajatlarning eng yuqori narxi</i>	<i>10 ballgacha.</i>

4. *Sifatni baholash metodologiyasi va arizaning xarid hujjatlari talablariga muvofiqligi (20 ball)*

1.	<i>Taklif sifati</i>	<i>Malakaviy baholash uchun taqdim qilinadigan hujjatlarning 100% muvofiqligi</i>	<i>20 ballgacha.</i>
		<i>Malakaviy baholash uchun taqdim qilinadigan hujjatlarning 80% dan yuqori muvofiqligi</i>	<i>10 ballgacha.</i>

	<i>Malakaviy baholash uchun taqdim qilinadigan hujjatlarning 70%dan yuqori muvofiqligi</i>	<i>5 ballgacha.</i>
	<i>Malakaviy baholash uchun taqdim qilinadigan hujjatlarning 70%dan kam muvofiqligi</i>	<i>muvofiq kelmasa chetlashtiriladi</i>